



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOG‘-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI
“XAVFLARNI BOSHQARISH” QO‘MITASI
BAYONI

2026-yil “- 14 ” iyul

5 -son

Toshkent shahri

Raislik qildi:	R. Yusupov	–	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazir o‘rinbosari
Qo‘mita a‘zolari:	Yu. Xodjamov		Moliyalashtirish va texnik siyosat boshqarmasi boshlig‘i
	Sh. Sag‘dullayev		Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i
	N. Tuxtamisheva		Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi boshlig‘i
Kotib:	A. Sadikov		Ichki audit bo‘limi boshlig‘i

Yig‘ilishni Kon-geologiya vazir o‘rinbosari - xavflarni boshqarish qo‘mitasi raisi o‘rinbosari R. Yusupov kirish so‘zi bilan ochib, kun tartibidagi asosiy masalalarni o‘qib eshittirdi. Qo‘mita yig‘ilishi kun tartibi va reglamenti bir ovozdan tasdiqlandi.

KUN TARTIBI:

I. Xavflar qo‘mitasi tomonidan 2026-yil tasdiqlangan xavflar reestri hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasining II-chorak ijrosi to‘g‘risida.

(Yusupov, Sadikov, Xodjamov,Yusupov)

Yig‘ilishda kun tartibiga kiritilgan masalalar, shu jumladan vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari hamda tegishli mutaxassislari tomonidan o‘z yo‘nalishlariga doir yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflar muxokama qilindi.

I. “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasining ishchi organi tomonidan tayyorlangan vazirlikning 2026-yil uchun tasdiqlangan xavflar reestri hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasining II -chorak ijrosi to‘g‘risida ma’lumotlar ko‘rib chiqildi.

Xususan,

Topshiriqqa muvofiq xavflar qo‘mitasi tomonidan vazirlik faoliyatiga oid bo‘lgan 2026-yil uchun 70 nomdagi xavflar reestri hamda ulardan xavf bahosi o‘rta bo‘lgan 52 ta va xavf bahosi yuqori bo‘lgan 9 ta xavflar jami 61 nomdagi xavflarni kamaytirish (oldini olish va bartaraf etish) yuzasidan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanib ijroga qaratilganligi.

Ishchi organ tomonidan chora-tadbirlar rejasining joriy yilning II-choragida bajarilishi bo‘yicha tarkibiy bo‘linmalardan olingan ma‘lumotlar ko‘ra,

Ko‘mir sanoatini rivojlantirish bo‘limiga tegishli xavf bahosi **“yuqori”** bo‘lgan ko‘mir qazib chiqarish va iste‘molchilarga yetkazib bera olmaslik xavfi joriy yilning II -choragi davomida qayta baholanib, ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida **“o‘rta”ga** bahoga tushirildi.

Xususan,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 26 maydagi PQ-203-sonli “Ko‘mir sanoatida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan ko‘mir narxlari erkin bozor tamoyillari asosida belgilanadi va yuzaga kelgan moliyaviy taqchillik barqarorlashadi;

moliyaviy taqchillik bartaraf etilib, ishlab chiqarish xarajatlari moliyalashtirilishi hisobiga dizel yonilg‘isi, ehtiyot qismlar bilan o‘z vaqtida ta‘minlanadi hamda pudratchi va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar oldidagi majburiyatlar bajariladi;

yoqilg‘i energetika tarmoqlari korxonalari tomonidan ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksiz olib borilishini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 26-iyundagi 333-sonli qaroriga asosan “O‘zbekko‘mir” AJga undiruvga yo‘l qo‘yilmaydigan maxsus maqsadli hisobvaraqlardan foydalanishga 2027-yil 1-iyunga qadar ruxsat berildi.

Shuningdek, kon-geologiya xizmati va noruda xomashyosi bo‘limining “Foydali qazilmalarning noqonuniy qazib olinishi” xavfi “o‘rta” qiymati **4,9dan 3,5ga o‘zgarishi kuzatilgan**. Ya’ni,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 9 sentyabrdagi PF-177-sonli “Iqtisodiyot tarmoqlarida aerokosmik ma‘lumotlardan foydalanishni kengaytirish va qishloq xo‘jaligi quyi bo‘g‘inida boshqaruv tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonigaga asosan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni boshqarishda samaradorlikni oshirish, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish monitoringini rivojlantirish, energetika sohasida nazoratni kuchaytiriladi.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi hamda Kadastr agentligi o‘zi aniqlagan huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha ma‘lumotlarni onlayn ravishda tegishli konturlar kesimida raqamli ko‘rinishda integratsiya orqali SGM platformasiga taqdim etib borish tizimi joriy qilinish belgilandi, bunda ma‘lumotlar ogohlantirish berilgani, huquqbuzarlik bartaraf etilgani, hujjatlar prokuratura va sud organlarida ko‘rib chiqilayotgani to‘g‘risidagi belgilarni o‘z ichiga oladi.

Vazirlikning qolgan tarkibiy bo'limlarida o'z yo'nalishlarida baholanib tasdiqlangan xavflar reestrida o'zgarishlar kuzatilmaganligini, yoki yangi xavf aniqlanmaganligini hamda ushbu xavflarni oldini olish va bartaraf etish chora-tadbirlari belgilangan tartibda amalga oshirayotganligini bildirdilar.

Shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hamda qarorlarga o'z ta'sirini ko'rsata oladigan xavflarni aniqlash va ularni muhimlik darajasi va guruhlariga taqsimlash lozim.

Yuqoridagilarni inobatga olib, tasdiqlangan xavflar reestri hamda xavf bahosi o'rta va yuqori bo'lgan xavflarni kamaytirish (oldini olish va bartaraf etish) yuzasidan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlash tavsiya etiladi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan qo'mita **yig'ilishi qaror qiladi:**


1. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi "Xavflarni boshqarish" qo'mitasi ishchi organining 2026-yil II-choragida Xavflar qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan xavflar reestri hamda ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasining ijrosi to'g'risidagi ma'lumot m a'qullansin va budget dasturlarida vazirlikning 2026-yil II-choragi uchun belgilangan maqsadli indikatorlar to'liq bajarilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi faoliyatiga oid ilovaga muvofiq 2026-yil uchun 70 nomdagi xavflar reestri hamda ulardan xavf bahosi "**o'rta**" bo'lgan 53 ta va xavf bahosi "**yuqori**" bo'lgan 8 ta xavflar jami 61 nomdagi xavflarni kamaytirish (oldini olish va bartaraf etish) yuzasidan chora-tadbirlarda belgilangan vazifalar ijrosi ta'minlab borilsin.

3. Belgilansinki, tarkibiy bo'linmalar tomonidan har chorak yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasiga qadar chora-tadbirlar rejasi ijrosi yuzasidan hamda yangi xavflarni aniqlash, mavjud xavflarni qayta baholash, kamaytirish (oldini olish, bartaraf etish) choralari ko'rilganligi to'g'risida ishchi organga ma'lumotlar taqdim etib borishga va ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'riligiga tarkibiy bo'linmalar hamda yo'nalish bo'yicha departament boshliqlari javobgar hisoblanadi.

4. Ichki audit bo'limi (Sadikov) 2026-yil uchun vazirlik faoliyatiga oid xavflar reestrini hamda ularni kamaytirish (*oldini olish va bartaraf etish*) yuzasidan chora-tadbirlar rejasining ijrosi belgilangan muddatlarda "Xavflarni boshqarish" qo'mitasida ko'rib chiqish va natijalari bo'yicha ma'lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi hamda iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etilishini ta'minlasin.

Raislik qiluvchi



R. Yusupov

Yig'ilish kotibi



A. Sadikov


Qo'mita a'zolari:



Yu. Xodjamov



Sh. Sag'dullaev



N. Tuxtamisheva